



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - NOYABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-noyabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9770,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 108,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,9 % ni tashkil etdi.



### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**2022 yil yanvar-noyabr**


*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 11,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 16,2 % ga o'sishi kuzatildi.*

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 166,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,7 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	16 786,4	22 481,2	5 694,8
Sharof Rashidov tumani	57 744,5	48 970,4	-8 774,1
Zomin tumani	17 540,4	8 452,2	-9 088,2
Jizzax shahri	62 178,1	67 284,4	5 106,3
Zafarobod tumani	16 025,2	10 713,5	- 5 311,7

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 40,3 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 29,5 % ni va G‘allaorol tumani 13,5 % ni tashkil etdi.

78,7 %


2021- yil

39,0 %

2022- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-noyabr oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9178,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,9 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-noyabr

93,0 %

2022-yil yanvar-noyabr

93,9 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1% o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 25,0 % (15,6 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali – 21,1 % (24,8 %) va quyi texnologiyalisi - 47,7 % (52,5%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 25,8 % ( 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 254,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,2 % ( 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,7 % ( 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,3 % ( 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,7 % ( 2021- yilning yanvar –noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,6 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxta linti**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**



**Trikotaj polotnolar**



**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	43 870,0	40 938,6	-2 931,4
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	57 699,1	48 134,8	-9 564,3
Paxta chigiti, t.	67 757,0	66 933,5	- 823,5
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	4 025,0	8 175,9	4 150,9
Paxta linti, t.	3 992,5	4 834,3	841,8
Trikotaj polotnolar, t.	2 236,0	1 720,0	-516,0

2022- yilning yanvar-noyabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 48,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 16,6 % kamaygan), 40,9 ming tonna paxta tolasi ( 7,8 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 66,9 ming tonna paxta chigiti 2,8 % ga ) kamaygani kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**83,4 %**


**Paxta tolasi, t.**

**92,2 %**


*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 110,6 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-noyabr oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,2 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 129,0 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 116,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 18,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 76,3 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1516,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-noyabr oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1185,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.







### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 74,0 % ni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 60,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 101,5 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2845,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 116,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 %, fizik hajm indeksi 101,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 349,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 96,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 58,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 113,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi 95,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 404,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 134,0 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 75,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 301,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 345,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 3,5 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 16,2 % ga o'sishi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	239 018,5	278 994,9	39 976,4
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	7,6	6,8	- 0,8
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	73 634,5	66 700,6	- 6 933,9

## 2022-yil yanvar-noyabr

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 79,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.*


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-noyabr	2022-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	66 824,8	56 686,3	-10 138,5
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	20 533,9	22 408,8	1 874,9

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 16,3 % ga, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 4,9 % ga pasayishi kuzatildi.*

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4628,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 116,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 47,4 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-noyabr

21,6%

2022-yil  
yanvar-noyabr

19,9%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-noyabr

78,4%

2022-yil  
yanvar-noyabr



80,1%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 19,9 % (2021- yil yanvar-noyabr oylarida 21,6 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 41,3 % ni va Paxtakor tumani 13,9 % ni, Sharof Rashidov tumani 8,4 % ni hamda Zarbdor tumani 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (133,3 %), Sharof Rashidov tumanida (155,4 %) hamda Arnasoy tumanida (114,3 %), qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 26,6 % shuningdek, G'allaorol tumani 43,2 %, ni, hamda Paxtakor tumani 6,8 % ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-noyabr

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 22,9 % shuningdek, G'allaorol tumani 52,7 %, Sharof Rashidov tumani 5,6 % ni tashkil etdi.

**1564,4** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-noyabr

**2247,2** mlrd. so'm



2021- yil yanvar-noyabr

**3706,1** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-noyabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 41,3 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 9,2 % ni, Paxtakor tumani esa 13,9 % ni tashkil etdi.





### Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 34,8 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 21,5 % ni, Zafarobod tumani esa 10,7 % ni tashkil etdi.

#### Jizzax viloyati

2020- yil

5060,6 mlrd. so'm

2021- yil

7126,6 mlrd. so'm

2022- yil

9770,1 mlrd. so'm



2020- yil

107,5 %

2021- yil

111,2 %

2022- yil

108,1 %

Jizzax viloyati

108,1

9770,1

Jizzax shahar

107,9

3404,3

Arnasoy

90,2

159,5

Baxmal

98,2

72,9

G'allaorol

142,2

2101,9

Sharof Rashidov

105,6

475,9

Do'stlik

98,2

713,6

Zomin

98,5

285,0

Zarbdor

103,3

276,7

Zafarobod

106,5

1043,9

Mirzacho'l

101,5

149,8

Paxtakor

109,8

571,8

Forish

113,6

472,5

Yangiobod

102,1


42,3

FHI, % da

mlrd. so'm



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (18039,4 ming so'm), Zafarobod (20087,5 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (11650,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6714,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 876,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,9 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 181,2 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 6 518,1 ming so'mni, Paxtakor tumanida – 4 024,5 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 11 083,6 ming so'mni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati



o'sish sur'ati

ming. so'm

## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4079 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1202 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,5 % i ) Jizzax shahriga, 695 tasi (17,0 %) Sharof Rashidov tumaniga, 423 tasi ( 10,4 %) G'allaorol tumaniga, 350 tasi ( 8,6 %) Zomin tumaniga va 234 tasi (5,7 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan



### Jami faoliyat yuritayotgan

